

ERON ADABIYOTI MALIKASI

КОРОЛЕВА ИРАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

QUEEN OF IRANIAN LITERATURE

Feruza NIZAMOVA,

INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY

OF UZBEKISTAN, Senior Lecturer,

Department of Classical Literature and Origins,

A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan.

f.nizamova@iiau.uz

DOI: 10.47980/IIAU/2021/3/8

Аннотация: Eronning jahon miqyosida shuhrat qozongan badiiy soʻz ustalari orasida xotin-qiz shoirlar ham kam emas edi. Maqolada ana shu shoirlar osmonining yorqin yulduzlaridan biri Parvin Eʼtisomiyning merosini oʻrganilib, tadqiq qilingan. Parvin Eʼtisomiy 1907 yil 15 martda Tabriz shahrida mashhur adib Yusuf Eʼtisomiy oilasida tugʻildi. Boʻlgʻusi shoiraning otasi oʻqimishli kishi boʻlib, adabiyotga ixlosi baland edi. Maqolaning maqsadi shoir sheʼriyatidagi mafkuraviy va badiiy usulni oʻrganish, mahoratini aniqlash, shuningdek, uning ijodini tahlil qilish orqali eron adabiyoti tarixida uning asarlari oʻrnini aniqlashdan iboratdir.

Eron adabiyotshunoslari Rashid Yosimiy, doktor Notil Parviz Xonlariyning aytishlaricha, Parvinning otasi tarjimon va isteʼdodli stilist ham edi. Uning adabiyot sahnasidagi xizmatlaridan biri – “Bahor” jurnalini nashr ettirganligidir. Parvin Yusuf Eʼtisomiyning yagona qizi edi. Yoshlik chogʻida ota-onasi va akasi bilan birga Tehronga koʻchib kelgan Parvin qizlar oʻrta maktabiga kirib oʻqiy boshlaydi. Maktabda Parvin oʻzining favqulodda isteʼdodi, qunti, odobi va kamtarligi bilan ajralib turardi. Maktabni muvaffaqiyat bilan tugatgani tufayli sinfdoshlari orasida yolgʻiz Parvin oʻqituvchilikka tavsiya etiladi.

Parvinning dunyoqarashining shakllanishiga, ajoyib talantining gullab-yashnashiga otasi Yusuf Eʼtisomiy katta taʼsir koʻrsatadi. U otasidan fors va arab adabiyoti boʻyicha ham koʻp maʼlumot oldi. Otasi rahbarligida Parvin oʻz xalqi yaratgan boy adabiyot va sanʼatni qunt bilan oʻrgandi. Fransuz, ingliz, turk va arab tillarini yaxshi bilgan Parvin Yevropa va jahon adabiyoti bilan tanishadi. Ana shunday sharoitda ulgʻaygan Parvin yoshligidanoq sheʼr yoza boshlaydi. Eʼtisom-ul-mulkning uyida koʻpgina shoirlar yigʻilishib turardi. Ana shunday yigʻilishlarda qatnashgan Eron shoirlari Malik-ush-shuaro Bahor, Muhammad Qazvinii, Said Nafisiy va boshqalar isteʼdodli shoir Parvinning yangi ijodidan bahramand boʻlardilar. Bu sheʼrlarga ular tomondan berilgan yuksak baho va tahsinlar kamtarin xislatli, uyatchan Parvinni magʻrurlantirmasdan,

aksincha isteʼdodli shoirani yanada koʻproq qunt bilan ishlashga undardi.

Maqolada Parvin Eʼtisomiyning faoliyati va merosi qator olimlarning tadqiqotlari oʻrganilib, tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: forsiy adabiyot, Parvin Eʼtisomiy, badiiy timsol, nazm, shoir, janr, tahlil, asar, til.

Аннотация: Среди всемирно известных иранских мастеров художественного самовыражения было много женщин-поэтов. Статья посвящена обширному наследию Парвин Этисами, одной из самых ярких звезд на небе среди поэтов. Парвин Этисами родилась 15 марта 1907 года в Тебризе в семье известного писателя Юсуфа Этисами. Отец будущей поэтессы был человеком образованным и преданным литературе. Целью предлагаемой статьи является определение места произведений Парвин Этисами в истории иранской литературы путем изучения ее идейно-художественного метода и анализа её творчества.

Иранский литературный критик Рашид Ясими и доктор Нотил Парвиз Ханлари писали, что отец Парвин также был переводчиком и талантливым литератором, а также издателем журнала «Весна». Парвин была единственной дочерью Юсуфа Этисами. Будучи юной, она переехала с родителями и братом в Тегеран, где поступила в среднюю школу для девочек. В школе Парвин отличалась незаурядным талантом, трудолюбием, манерами и скромностью, за отличные успехи она стала единственной среди одноклассников, кого рекомендовали в качестве учителя.

На формирование мировоззрения Парвин и расцвет её незаурядного таланта оказал большое влияние ее отец Юсуф Этисами, который передал ей обширные знания персидской и арабской литературы. Под руководством своего отца Парвин прилежно изучала богатую литературу и искусство, созданное её народом. Свободно владея французским, английским, турецким и арабским языками, Парвин была знакома с европейской и мировой литературой. Выросшая в таких условиях Парвин начала писать стихи в юном возрасте. Многие поэты собирались в доме Этисам-уль-мульк. Иранские поэты Малику-ш-шуаро Бахор, Мухаммад Казвини, Саид Нафиси и другие, посещавшие такие собрания, наслаждались произведениями талантливой поэтессы Парвин.

Ключевые слова: персидская литература, образ, поэзия, поэт, жанр, анализ, произведение, язык.

Abstract: Among Iran's world-renowned masters of artistic expression, there were also many female poets. The article seeks to explore the vast legacy of Parvin Etisami, one of the brightest stars in the sky of these poets. Parvin Etisami was born on March 15, 1907 in Tabriz in the family of the famous writer Yusuf Etisami. The father of the future poet was an educated man, and his devotion to literature was high. The purpose of the article is to determine the place of her works in the history of Iranian literature by studying the ideological

and artistic method of the poet's poetry, determining her skills, as well as analyzing her work.

Iranian literary critic Rashid Yassimi and Dr. Notil Parviz Khanlari say Parvin's father was also a translator and a talented stylist. One of her services in the field of literature is the publication of the magazine "Spring". Parvin was the only daughter of Yusuf Etisami. Parvin, who moved to Tehran with her parents and brother as a young man, entered a girls' high school. At school, Parvin was distinguished by her extraordinary talent, diligence, manners, and humility. Because of her successful graduation, Parvin is the only one among her classmates to be recommended as a teacher.

Parvin's father, Yusuf Etisami, had a great influence on the formation of Parvin's worldview and the flourishing of his extraordinary talent. She also received extensive knowledge of Persian and Arabic literature from her father. Under her father's guidance, Parvin diligently studied the rich literature and art created by her people. Fluent in French, English, Turkish and Arabic, Parvin is familiar with European and world literature. Growing up in such conditions, Parvin began to write poetry at a young age. Many poets used to gather in the house of Etisam-ul-mulk. Iranian poets Malik-ush-shuaro Bahor, Muhammad Qazvini, Said Nafisi and others who attended such gatherings would enjoy the new work of the talented poet Parvin. The high esteem and admiration given to these poems by them did not make the humble, shy Parvin proud, but rather encouraged the talented poet to work even harder.

Keywords: Persian literature, imige, poetry, poet, genre, analysis, work, language.

KIRISH

Eronning jahon miqyosida shuhrat qozongan badiiy soʻz ustalari orasida xotin-qiz shoirlar ham kam emas edi. Ana shu shoirlar osmonining yorqin yulduzlaridan biri Parvin Eʼtisomiydir. Parvin Eʼtisomiy 1907 yil 15 martda Tabriz shahrida mashhur adib Yusuf Eʼtisomiy oilasida tugʻildi. Boʻlgʻusi shoiraning otasi oʻqimishli kishi boʻlib, adabiyotni ixlosi baland edi.

Eron adabiyotshunoslari Rashid Yosimiy, doktor Notil Parviz Xonlariyning aytishlaricha, Parvinning otasi tarjimon va isteʼdodli stilist ham edi. Uning adabiyot sahnasidagi xizmatlaridan biri – “Bahor” jurnalini nashr ettirganligidir. Parvin Yusuf Eʼtisomiyning yagona qizi edi. Yoshlik chogʻida ota-onasi va akasi bilan birga Tehronga koʻchib kelgan Parvin qizlar oʻrta maktabiga kirib oʻqiy boshlaydi. Maktabda Parvin oʻzining favqulodda isteʼdodi, qunti, odobi va kamtarligi bilan ajralib turardi. Maktabni muvaffaqiyat bilan tugatgani tufayli sinfdoshlari orasida yolgʻiz Parvin oʻqituvchilikka tavsiya etiladi.

USLUBLAR

Parvinning dunyoqarashining shakllanishiga, ajoyib talantining gullab-yashnashiga otasi Yusuf

Eʼtisomiy katta taʼsir koʻrsatadi. U otasidan fors va arab adabiyoti boʻyicha ham keng maʼlumot oldi. Otasi rahbarligida Parvin oʻz xalqi yaratgan boy adabiyot va sanʼatni qunt bilan oʻrgandi. Fransuz, ingliz, turk va arab tillarini yaxshi bilgan Parvin Yevropa va jahon adabiyoti bilan tanishadi. Ana shunday sharoitda ulgʻaygan Parvin yoshligidanoq sheʼr yoza boshlaydi. Eʼtisom-ul-mulkning uyida koʻpgina shoirlar yigʻilishib turardi. Ana shunday yigʻilishlarda qatnashgan Eron shoirlari Malik-ush-shuaro Bahor, Muhammad Qazviniy, Said Nafisiy va boshqalar isteʼdodli shoir Parvinning yangi ijodidan bahramand boʻlardilar. Bu sheʼrlarga ular tomondan berilgan yuksak baho va tahsinlar kamtarin xislatli, uyatchan Parvinni magʻrurlantirmasdan, aksincha isteʼdodli shoirani yanada koʻproq qunt bilan ishlashga undardi.

NATIJA

Yusuf Eʼtisomiyning uyidagi yigʻilishlarda ishtirok etib kelgan mashhur Eron yozuvchisi va olimi Said Nafisiyning Parvin haqida aytgan soʻzlari juda xarakterlidir: “Parvin, - deydi Said Nafisiy, - doim sokin va orom chehra bilan boqardi. Uning javoblaridan shoshmaslik va kamtarinlik koʻrinib turardi. Koʻzlari mudom yerga boqar, kattalar xuzurida kulishga shijoat etmasdi. Uning sheʼrlarini maqtasang, bu maqtovni juda oromlik bilan tinglar, yuzida na quvonch va na tantana namoyon boʻlmasdi. Men hech qachon undan birorta ham maqtanish soʻzini eshitmaganman, uning xulqida magʻrurlik va gerdayish degan narsa yoʻq edi” (*Nafisiy S., 1323 h. :24*).

MUHOKAMA

Adabiyot homiysi boʻlgan Parvin Eʼtisomiy yosh Parvinda shoirlik talantini tarbiyalashda muhim rol oʻynadi. Otasi tomonidan nashr ettirilgan Parvinning ilk sheʼrlari oʻziga xosligi va yetukligi bilan kitobxonlarni oʻziga jalb etdi. Parvinning sheʼrlarini oʻqigan kitobxonlar bunday isteʼdod bilan ijod etilgan sheʼrlarning muallifi yosh Parvin emas, balki uning otasi deb ham oʻylagan edilar. Bu haqda Parvinning oʻzi quyidagi satrlarni yozadi:

Shubhali fikrlardan holi boʻlmogʻi kerak dil,

Bu koʻzgu chang-toʻzon qoʻnadigan joy emasligini bilmogʻi kerak devning,

Ahli fazllardan baʼzilar Parvinni er kishi deb oʻylaydilar,

Ammo mazkur muammo Parvinning er kishi emasligini yaxshiroq aytib beradi (*Parvin E., 1954:17*).

Parvin 27 yoshida sheʼrlar devonini yakunladi. Oʻsha davrlarda Eronda turmushga chiqmagan ayollar uchun adabiyot sahnasidan joy olish, jamiyatda oʻziga

xos o‘rin egallash juda qiyin narsa edi. Shuning uchun ham Parvinning devoni nashr ettirilmaydi. Zamonasining ilg‘or kishilaridan hisoblangan Yusuf E’tisomiy ham yuqoridagi urf-odatni buzolmadi: qizining devonini to u turmush qurmaguncha nashr ettirishga ijozat bermadi.

Parvinning o‘tkir shoirlik talanti haqidagi ovoza tez orada shoh saroyiga ham yetib bordi. Rizo shoh Parvinni saroyga chaqirib, qiziga murabbiylik qilishni taklif etadi. Shon-shuhrat va mansabparastlikni fikriga ham keltirmagan Parvin shoh taklifini rad etadi.

1934 yili Parvin E’tisomiyning shaxsiy hayotida o‘zgarish ro‘y beradi: uni amakisini o‘g‘liga turmushga berishadi. Lekin Parvin bu oilada ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Uning eri badavlat, ammo qo‘pol muomalali, dag‘al va johil kishi bo‘lib chiqadi. Bu xonadonda ayollarning huquqlari paymol qilinardi. Qalbida ilm-ma‘rifatga intilishi kuchli bo‘lgan Parvin, albatta, bunday sharoitda yashay olmadi va ota uyiga qaytib keldi.

Qisqa, ammo achchiq mashaqqatlari bilan bir umrga teng bo‘lgan ana shu turmush qurgan onlari haqida Parvin quyidagi qit‘ani yozgan edi:

Ey gul, gulzorga kirib sen nima ko‘rding?

Ta‘na tosh va xo‘rlanishdan boshqa nima ham ko‘rding?

Ey, cho‘g‘dek yaltirab turuvchi la‘l, shunday qiymating bilan

Bozorda seni sotib oluvchi xasis xaridorlardan boshqa nima ko‘rding?

Qafasdan boshqa ey giriftor bulbul,

Chamanga borib nima ko‘rding? (Parvin E., 1954:17).

Baxtsizlik qismati shoironing qalbida o‘chmas dog‘ qoldiradi. Ammo Parvin yuragiga orom beruvchi yagona tasallini adabiy faoliyatdan topdi. U endi ilgarigidan ham kuchliroq qunt bilan badiiy ijodiyot bilan shug‘ullanadi.

1935 yili Parvinning she‘rlar devoni nashrdan chiqadi. Bu tuhfani shoira murabbiysi va otasi E’tisomiy mulkka bag‘ishladi. Oradan ikki yil o‘tganidan keyin Parvinning boshiga katta kulfat tushadi. U mehribon, maslahatgo‘y otasidan ajraladi. Otasining o‘limi shoira qalbini bir tomondan she‘riyat bobida salmoqli va jozibador, chuqur falsafiy fikrlarga boy bo‘lgan yangidan-yangi asarlar yozishga undaydi. 30-yillarning oxirlarida Parvin Tehrondagi pedagogika instituti kutubxonasida xizmatchi bo‘lib ishlaydi. Ana shu yillarda Tehronda tashkil etilgan xotin-qizlar jamiyatida ham katta faoliyat ko‘rsatadi. Ana shu jamiyatning faol a‘zolaridan biri bo‘lgan Shamsumuluk Javohir Kalom Parvin haqidagi xotiralarida shunday deb yozadi: “Tanho bir o‘zi jamiyatimizni namoyon qila oladigan bu mashhur ayol bilan juda ko‘p uchrashganman. U

bilan uzoq suhbat qurarkanman, uning siymosida o‘z xalqi va Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbat va sadoqati namoyon bo‘lardi. Uning qalbi moviy dengizdek tiniq va musaffo edi” (*Shamsulmuluk J., 1954:38*).

Parvin E’tisomiyning faoliyati va ijodiyotining cho‘qqiga chiqqan davri unnig to‘satdan tif kasali bilan vafot etishi tufayli nihoyasiga yetadi. 1941 yil aprel oyida Parvin Qum shaharida otasi dafn etilgan qabristonga ko‘miladi.

Parvin E’tisomiyning nisbatan qisqa, ammo yorqin ijodiyotining asosiy qismi Rizo shohning hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Eronda ana shu davrda, jamiyatdagi ozodlik va demokratiya tarafdorlari qattiq ta‘qib ostiga olingan edi. 30-yillarning oxirida Erondagi ko‘pgina yozuvchi va shoirlarning hayotiy masalalardan chetlashishlari sababi ham ana shunda edi. Ana shunday qiyin sharoitda adabiyot san‘atini rivojlantirishga harakat qilgan shoirlar jumlasiga Parvin E’tisomiy ham kiradi. Darhaqiqat, Parvinning ijod etgan she‘rlaridagi asosiy g‘oya – mazlum xalqning ozodligi, jamiyatdagi nuqsonlarni tanqid qilish shoira ijodiyotining asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Parvin ijodiyotiga marhum Ye.E.Bertels tomonidan berilgan baho ana shu fikrimizga dalil bo‘la oladi. Ye.E.Bertels o‘zining “Очерки истории персидской литературы” nomli asarida shunday degan edi: “U o‘z she‘rlarini ma‘shuqining yuragini noz-karashma bilan asir qilish istagi bilan yozmaydi... U yangi g‘oyalarni ilgari suruvchi va jamiyatda sotsial reformalar amalga oshirilishini talab qiluvchi shoira sifatida taniladi”. Mashhur Eron yozuvchisi va jamoat arbobi Malik-ush-shuaro Bahor ham Parvin ijodiyotiga yuksak baho beradi:

“Badiiy so‘z vatani – Eronda, - deb yozadi Bahor, - xotin kishining shoir bo‘lishi nodir voqealardan biri hisoblanadi. O‘zining o‘tkir talanti, go‘zal va nafis she‘rlari bilan o‘quvchilar qalbini maftun eta olgan va hayotni shunchalar chuqur bilgan shoira Parvin edikim, uning adabiyot sahnasida paydo bo‘lishi har qanday tahsin va taajjubga sazovordir” - deydi Malik ush-shuaro Bahor E’tisomiyning devoniga yozgan kirish so‘zida.

Parvin o‘zining talantini, yuragidagi alangali o‘tini xalqi, mehnat ahliga, kambag‘al va yetimlarni himoya qilishga, eron-xotin qizlarining jamiyatda munosib o‘rin egallashiga bag‘ishladi. Shoironing diqqat markazi hamisha yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlikni bartaraf etish, zahmatkash xalqning og‘ir ahvolini yaxshilash fikrida edi.

Hayotni shoirona qalb bilan kuzatar ekan, Parvin bir tomondan ona yurti dehqonlarining qashshoqligi, ayollarning huquqsizligi, kambag‘allarning farzandlari boshiga tushgan mashaqqatlarni mushohada etsa,

ikkinchi tomondan boylarning xalqni ezib boyliklarini orttirish yo'lida qilayotgan hiylagarliklari va razilliklarini ko'rardi. Hayotdagi bunday ziddiyatlar ehtirosli shoirani doimo talvasaga solardi, bu ziddiyatlarni hal qilish yo'llari haqida fikr yuritardi. Parvin dunyoqarashida ezilgan xalqqa achinish, unga yordam berish, zulmkorlarga nisbatan nafrat va g'azab tuyg'ulari kuchaya boradi. Uning she'riyatidagi asosiy yo'nalish ham asosan shu narsa bo'lib qoladi.

Favqulodda mard, haqqoniy va adolatli inson bo'lgan Parvin o'z xalqi kechirayotgan azoblarni xotirjamlik bilan kuzatib bora olmasdi. O'z xalqining zulmat va jaholat girdobida yotishiga chidab turolmasdi.

Parvin E'tisomiy ijodida zamonasining ilg'or g'oyalari to'la aksini topdi. Parvin E'tisomiy ijodiyotida asosiy mavzularni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- Mehnat va bilimni inson hayotidagi ahamiyati;
- Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik;
- Muhtojlikda o'tuvchi yoshlik;
- Xotin-qizlarning ayanchli qismati.

Ushbu mavzular shoira ijodiyotida asosiy o'rinni egallagan yuksak g'oyalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Shoira o'zining ko'pgina asarlarida inson va jamiyat hayotida mehnat, aql-idrok va bilimni bo'lishning katta ahamiyati borligini alohida qayd etadi.

Insonni, hammadan avval mehnat ahlini e'zozlash, uni chuqur hurmat qilish Parvin uchun muhim o'rinda turadi. Mehnat, faqatgina mehnat – yer yuzida inson tomonidan yaratiladigan boyliklarning asosiy manbaidir, mehnat insonni ulug'laydi. Insonning ulug'ligi uning boyligida emas, uning mehnatida, hunarida, deydi shoira o'zining quyidagi misralarida:

Ilm osmonida amal eng afzal qanotdir,

Barhayot yurtda hunar eng yaxshi boylikdir (Parvin E., 1941:18).

Parvinning dehqonlar mehnatiga bag'ishlangan ko'pgina she'rlari fors-tojik adabiyotining mumtoz namoyandasi Nosir Xusravning ana shu mavzudagi she'rlariga hamohangdir. Shoira birovlar mehnati evaziga yashovchi tekinxo'rlarni qoralaydi, mehnat ahliga tahsinlar aytadi. Bu jihatdan Parvinning "Tikan teruvchining qo'shig'i", "Ona orzusi", "Boylar sitami – biz uchun do'ldek kulfat" kabi she'rlari, "Tirishish va amal", "Chumoli va bulbul" nomli masalalari xarakterlidir.

"Tikan teruvchining qo'shig'i" she'rida mehnat hayotning negizi ekanligini tasvirlar ekan, shunday deydi:

Bilak kuching bilan hosil qil baxting, ey inson,

Omborda yotmaydi sening kuch-qudrating.

Bekor turmoq munosib emas bizga,

Biror qatra va zarra ham turmaydi ishsiz bu olamda.

Masnaviy shaklida yozilgan "Tirishish va amal" masalasida Parvin o'z mehnati tufayli hurriyat va mustaqillikka erishgan chumoli obrazini tasvirlaydi. Chigirtka oyog'ini sudrab ketayotgan chumoli, o'z mehnatidan mag'rurlanib, Sulaymon podshoga shunday deydi:

Har kimki harakat qilib tirishar ekan,

O'zidan boshqadan ozoddir mudom,

Menga o'xshab o'z mehnati evaziga yashovchi mahdum.

Hech qachon bo'lmas birovlar hukmiga mahkum

Menda rohat umidi ko'p bu mehnatdan

Afzaldir men uchun bu chigirtka oyog'i yuz ganjdan (Parvin E., 1941:18).

Mehnat ahli, hunar sohibi har bir joyda hurmatga sazovor bo'lishi kerak, chunki hunar va mehnat hayotga afzallik bag'ishlaydi. Mehnat va hunar haqidagi mavzu Parvin E'tisomiyning she'rlarida ilm va ma'rifat mavzusi bilan chambarchsa bog'langan. Bu haqda o'uyidagi misralarini keltira olamiz:

Ochlikdan halok bulmasin hunar ahli,

Jonga nondir ilmu hunar.

Fazl yongan chirog'dir,

Ilm xazonsiz bahordir.

Shoira ilm va fazilat inson uchun eng katta ganj deb ta'kidlaydi. Inson o'zining mehnati aql-idroki va bilimi bilan hayvondan farq qiladi:

Insonning fahri uning ilmidadir, boyligi va mol-mulkida emas,

Faqat hunardir insonni hayvondan ajratib turadigan narsa.

Yana boshqa bir joyda shoira ilm haqidagi fikrlarini quyidagicha bayon etadi:

Hayotning manbai ilmdir, ganj, tilla va molu mulk emas,

Inson ruhi bu yo'ldan bo'ladi tavono.

Parvin E'tisomiyning juda ko'p she'rlari mehnat, ilm-ma'rifat va aql-idrokka bag'ishlangan gimn kabi yangraydi. Ammo shoira tomonidan tarannum etilgan mehnat, hunar va ilm u yashab turgan jamiyatda poymol etilgan edi. Mehnat samarasidan zo'rlik oqibatida tekinxo'rlar huzur ko'rardilar. Parvin bu adolatsizlikning yo'qolishini orzu qiladi. O'zining "Orzular" degan qit'asida mehnat zo'rlik va istibdod zanjirlaridan qutilishi, mehnatkash ommaga foyda keltirishini orzu qiladi:

Ranj chekmoq o'z ekinzorida bo'lsa yaxshi,

Xirmon ko'targanda, hosili o'z etagiga tushgani yaxshi.

Ertayu kech ekmoq, yer chopmoq, xirmonda don yanchish,

Oqibati kechalari o'z tandirida non yopish bilan tugalsa yaxshi.

Parvin ijodida xotin-qizlar mavzusi muhim o'rin egallagan mavzulardan hisoblanadi. Ularni oilada, jamiyatda noqulay sharoitlarga tushirib qo'ygan, jamiyatdagi bir necha davrlardan buyon davom etib kelayotgan urflarni bartaraf etish Erondagi ilg'or kishilar fikrini o'ziga jalb qilib kelgan. Erondagi sinfiy jamiyatda sarlar davomida hukmron sinflar tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinayotgan bu qonun va urf-odatlar asrimizning 20-yillarida yanada kuchaygan edi.

Eronning ilg'or shoirlari Iroj Mirza (1874-1926), Abulqosim Lohutiy (1887-1957), Mirzoda Ishqiy (1894-1924), Malik-ush-shuaro Bahor (1886-1951) va boshqa shular kabi shoir va yozuvchilar o'z asarlarida eron xotin-qizlarining ozodligi, ularning oila va jamiyatda teng huquqqa ega bo'lishlari kabi talablarni qo'ydilar.

Xotin-qizlar boshiga tushgan azob-uqubatlar, xo'rliklarni shaxsan o'zi ham boshidan kechirgani uchun Parvin E'tisomiy o'z asarlarida Erondagi ayollar hayotini o'tkir qalam va yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Shoiraning adabiy merosi bo'lgan "Devon"ni mutolaa qilar ekanmiz, xotin-qizlarga bag'ishlangan juda ko'p she'rlarini ko'ramiz. Shoir o'zining she'rlarida ayollarning og'ir qismatini tasvirlar ekan, huddi o'zining yuragidagi dardu alamlarini izhor etayotgandek, yolg'izlik, haqorat, kamsitishlardan bezor bo'lgan ayol obrazi ko'z oldimizga keladi. 1925 yilda shoir Tehrondagi o'rta maktabni bitirishi munosabati bilan tashkil etilgan tantanali majlisda "Ayollar va tarix" degan mavzuda nutq so'zlaydi. Uning bu nutqidan sezilib turibdiki, shoir ayollarning bunday og'ir sharoitda kun kechirayotganlari sabablarini va ularning muammolarini yoritishga harakat qilgan.

"Madaniyat beshigi hisoblangan Sharqda, - deydi shoir, - ko'p asrlar davomida shuhrati olamga tarqalgan Sharq mamlakatlarida xotin-qizlarning qismati hamisha azob-uqubat, ezilish va xo'rlik bo'lib kelgan".

Erondagi ilg'or kishilar, yozuvchi va shoirlarning o'sha davr muammolaridan bo'lgan ayollarning ezilishi, qulligiga qarshi izhor etgan noroziliklari o'z kuchini ko'rsatdi. Rizo shoh hukumati xotin-qizlar masalasida ma'lum reformalar o'tkazishga majbur bo'ldi. Parvin o'zining "Eron ayoli" nomli she'rida ayollarning turmush tarzini real tasvirlab berishga harakat qiladi:

Uning hayoti ham, o'limi ham bir burchakda o'tgan,

Qisqasi, uning hayoti qamoq qafasdan qolishmasdi.

Hech kim ayollardek asrlardan beri qorong'ilikda yashab kelmagan,

Hech kim ayollardek dindorlar aldashlarining qurboni bo'lmagan.

Qozixonada ham ayol kishining huquqi bo'lgan poymol,

*Ilm maktabida ham u bechoraga qolmasdi joy
Ayollarning haqqoniy talablari butun umri
qondirilmagan*

*Bu adolatsizliklar sirli bo'lmasdan koshki oshkor
bo'lsa edi.*

Hayot yo'lida nega endi ayol kishiga

*Og'ir va alamli qismatdan boshqa narsa nasib
bo'lmagan.*

Qafasda yashab, qafasda jon berardi u,

*Gul bog'ida bu qushning nomi ham bo'lmagan
(Parvin E., 1941:18).*

Parvin xotin-qizlar mavzusida ijod etar ekan, bu masalaning ijtimoiy mohiyatini ochishga harakat qiladi. Shoiraning fikricha, xotin-qizlarni ozodlikka erishtiruvchi yo'l ularni erkaklar bilan bir qatorda ilm-ma'rifatga ega qilishdir. Shoiraning bu haqdagi fikrlari uning "Orzu-umid daraxti" nomli she'rida o'z ifodasini topadi. Parvin o'z she'rida bunday deydi:

Eron ayolining qoloqligi – jaholatdan,

*Erkak va ayol kishining afzalligi va qadr-qiymati
ilm tufayli.*

*Har bir ayol ilm o'rganish qadrini bilsa, juda
yaxshi bo'lardi,*

*U vaqtda hech kim: er bola aqlli, qiz bola nodon
dimasdi.*

*Ilmga ega bo'lgan har bir ayol kishi o'z yurtida
shuhrat qozonib kelgan,*

*Biz bechorani esa hech kim bu jaholatdan bedor
qilmagan.*

Ayollarning jamiyatda huquqsizligi shoir qalbida qattiq yaralab kelayotgan azobga aylanadi, ayollarni huquqdan mahrum etganlarga qahr bilan murojaat qilib, bunday deydi:

*Nima sababdan ayollar huquqdan mahrum
etilganlar?*

*Nima uchun bu toifaning nomi ham bir idoradan
yiroqlashtirilgan.*

Ona, axir bolaning birinchi muhabbati emasmi?

*Olim o'g'ilni johil ona tarbiya qilganini kim
ko'ribdi?*

Parvin E'tisomiyning ayollarning iffati, pokizaligi to'g'risidagi fikrlari yuqorida zikr etilga shoir Iraj Mirzolarining fikriga qo'shilib ketadi. Parvin E'tisomiy ayol kishining or-nomusini bir qimmatbaho narsaga, ayol kishini esa shu qimmatbaho buyumlar saqlanuvchi xazinaning posboniga o'xshatadi.

Xotin-qizlarga murojaat qilib shoir, hayotda faqatgina go'zallik va qimmatbaho buyumlar bilan cheklanib qolmasdan, ilm-ma'rifatga, yorug'likka intilish kerak, bo'lmasa ayol kishi jaholat changalidan qutila olmaydi, johil ayol atrofidagi voqealarga tushunib yeta olmaydi, o'z farzandini tarbiya qila olmaydi, deb tushuntiradi:

Afzallik va ustunlikning eng birinchi sharti insonning olimlik obro'si bo'lishi kerak.

Zumrad bilaguzuk va Badahshon la'li emas kishining afzalligi!

Ayol kishi jaholat changalida yotgan yerda qimmatbaho toshning qadri bormi?

Axir, qimmatbaho buyum jaholat nuqsonlarini yashira olmaydiku.

“Mehr parisi” she'rida Parvin ayol kishining ulug'ligi haqida shunday deydi: ayol kishi ona, - deydi shoir, - yaxshilik va mehru muhabbat simvolidir, oila negizining asosi, ayolsiz uyda mehru muhabbat ham bo'lmaydi:

*Ayolsiz uyda bo'lmas mehru muhabbat,
Yuragi to'xtab qolgan tanda ham hayot to'xtagan.
Hech qanday kitobda, hech qanday muqaddimada,
Erkak kishi kamolot, xotin kishi noqislik, deb aytilmagan,*

Ayollar azaldan hayotning tayanchig'i.

Ona obrazini ulug'lar ekan, Parvin o'z she'rini davom ettirib, Aflotun, Arastu kabi ulug' kishilarni ham ona o'z mehri muhabbati bilan tarbiya qilgan. Ana shu ona mehri ularni ulug' kishilarga aylantirdi, deydi:

Agar Aflotun va Arastu ulug' kishilar bo'lgan bo'lsalar,

Demak, ularning yoshliklarida ona tarbiyasi ulug' bo'lgan.

*Yoshligida ona beshigida to'yguncha uxlab olib,
Keyin hikmat maktabiga borib, hokim bo'lgan Luqmon ham.*

Ayol kishining oiladagi vazifasi ana shunday ulug' ekan, deydi Parvin, oilada ayol kishi erkak bilan teng bo'lishi, erkak kishidek ozod va teng huquqli bo'lishi kerak. Ana shundagina, erkaklar ega bo'lgan huquqqa ayol kishi ham ega bo'lgandagina xotin kishi haqiqiy ona va erkakning umr yo'ldoshi bo'la oladi:

Erkak va ayol kishining vazifasi nima bilasanmi ey, donishmand?

Ularning biri kema bo'lsa, ikkinchisi kema boshqaruvchisi.

Kema boshqaruvchi dono va kemasi mustahkam bo'lsa,

U vaqtda hech qanday to'lqin bo'ron va chuqurliklar ularga hayfli emas.

Ular hayot qiyinchiliklariga duch kelsalar

Ham erkak, ham ayol barobar harakat qilishlari kerak.

Bugungi qiz bola – ertangi ona,

O'g'il farzandlarga ona tomonidan beriladi ulug'lik.

Parvin E'tisomiy, asrlar bo'yi Eron xotin-qizlari boshiga yog'dirilayotgan azob-uqubat, xo'rliklar,

kamsitishlar kabi zulmni yo'qotishga chaqirar ekan, uning chaqirig'i xotin-qizlarni ilm-ma'rifatga chorlash, erkaklar bilan teng huquqda ishlash va o'qish kabi talablar bilan cheklangan edi.

Shunga qaramasdan, Eron jamiyatidagi 30-yillardagi keskin siyosiy muhitda “huquqsizlarning eng huquqsizi” bo'lgan ayol kishining tili bilan ushbu talablarning qo'yilishi, shubhasiz, dadil bir qadam hisoblanadi.

Parvin E'tisomiy ijodiyotidan katta o'rin olgan Eron xotin-qizlarining huquqsizligi va ezilishi masalasi bilan mehnatkash xalq farzandlarining baxtsiz yoshligi mavzusi chambarchas bog'lanib ketadi. Ijtimoiy zulm qurbonlari bo'lgan baxtsiz go'daklar haqida yozgan she'rlarida Parvin E'tisomiy o'zi yashab turgan jamiyatning nuqsonlarini ochib tashlashga harakat kiladi. Shoiraning “Yetim”, “Yetim ko'z yoshi”, “Zahmatkash go'dak”, “Otasiz”, “Baxti qora”, “Jarohatlangan qalb”, “Qashshoqlik” kabi o'nlab she'rlari ota-ona mhridan judo bo'lgan, boshpanasiz, xo'rlik va qashshoqlikda ko'z yoshi to'kib, baxtsiz hayot kechirayotgan go'daklarni tasvirlaydi. Parvin E'tisomiyning “Yetim bola” she'rida yetim og'zidan aytilgan quyidagi so'zlar inson qalbini tirnab yuboradi:

Ona yuzini ko'rmadim hargiz,

Yetim ko'zi ravshan emas

Go'daklar yig'laydilar, ammo men

Yig'lashga ham, fursat topolmayman.

Uchragan har bir ayolni orziqib ona dedim,

Dedi u menga: “sening onang yo'q”.

Zamona menga dushman ekanda,

Biror mehribon kishini menga qoldirmapti.

“Jarohatlangan qalb” she'ri yetim qolgan dehqon qizining o'z onasiga qilgan shikoyatini quyidagi to'lqinli misralarda ifoda etgan. Mahallasidagi qizlar u bilan o'ynamaydilar, sen yetimsan, deb uni davralariga ham qo'shmaydilar. U onasidan: “Otasiz qolganlar odam emasmi”, deb go'daklarga xos sofdillik bilan so'raydi. Shunda onasi quyidagi javobni aytadi:

Sening ustingdan ta'na qilganlar

Mening ko'z yoshlarimdan ogoh emaslar.

Otang hayotni so'rama mendan zinhor,

Tesha, omoch va boltadan boshqa bisoti yo'q edi.

Baso ranj chekdi, ammo hech kim odam qatoriga ham sanamadi.

Suronsiz hayot kechirdi, bisotsiz o'tdi dunyodan.

Kambag'al farzandiga orzu-havas qilish xatodir,

Tanasidan uzilib tushgan shohda meva unmaydi.

Parvin yetimlar haqida yozgan she'rlarida o'z qahramonlari bilan birga iztirob chekadi. Ammo shoiraning qalbidagi iztirob bu yetimlarning baxtsizligiga sabab bo'lganlarni qarshi nafrat o'tiga,

baxtsiz yoshlik tug'dirayotgan ijtimoiy tuzumga qarshi isyonga aylanadi. "Yetimning ko'z yoshi" she'ri bu fikrimizga dalil bo'la oladi:

*Yo'ldan o'tmoqda edi bir podshoh,
Tom, devordan chiqdi qiyg'os ohu voh.
Bir yetim so'radi shu on bir kimsadan:
"Tovlanur shoh tojida, u na ekan?
U kishi, nedur u, bilmayman dedi,
Jilva bebaho gavharmidi.
Qad bukuk bir kampir yaqinroq keldi-yu,
Dedi: "Ko'z yoshim, dilingiz qoni u!
Bizni u cho'pon qilib, ko'p aldadi,
Qancha yil, bu bo'ri qo'ylarni yedi..."*

Parvin E'tisomiyning yuqorida keltirilgan she'ri o'zining ijtimoiy mohiyati bilan shoira yaratgan she'rlar orasida alohida o'rin tutadi.

Parvin E'tisomiyning she'rlaridagi bunday tuyg'ular yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ochiqdan-ochiq fosh etish motivlariga aylanib ketadi.

Shoira ijodiyotida ijtimoiy tengsizlik muhim mavzulardan biriga aylanadi. Zo'ravonlarning ojizlar ustidan o'tkazayotgan zulmi shoira yaratgan she'rlarda o'z aksini topar ekan, mazkur mavzu orqali Parvin o'zining ter to'kib yashash uchun tirishayotganlar – mazlumlar tomonida turishini, ularning manfaatlarini himoya qilishni izhor etadi.

Parvin qalbida alam bilan eron dehqonlarining og'ir hayotini, doimiy muhtojlik holatlarini tasvirlaydi. U o'zining "Rizqimiz ajdar og'zida" qit'asida ana shunday dehqonlardan birini tasvirlar ekan dehqon o'g'li tili bilan ezuvchi zolimlarni qoralaydi:

*Ey ota, jonim ota,
Bizga boy zulmi yashin yanglig' tushar.
Ayshu rohatdir ularning ishlari
G'am-alamni bizga taqsim qildilar.
Qayda bizning haq, ular haqli esa,
Baxtu iqbol, kattalik, boylik agar?
Biz yegaymiz non jigar qoni bilan,
Rizqimiz ajdarning og'zida yotar.
Bizning hosil boshqalar omborida,
Bizni mehnat nega befoyda ketar?!*

Dehqon hayotidagi azob-uqubatlarni mohirlik bilan ifoda etgan bu she'rning quyidagi misralari chuqur ijtimoiy ma'no kasb etgan:

*Ne uchun, ro'yobga chiqmas el ishi?
Ne uchun, bechoralarni xor etar?
Biz kabi oftobda kuygan xalqning
Qalbining ko'zida qaydan nur yonar?
Dunyoda bizda faqat bor orzu,
Heni ko'rdik dunyodan — jabru zarar.*

Parvin sinfiy jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikka qarshi qattiq norozilik bildirishga ham yetib boradi. Buni

uning «Ey, zahmatkash» nomli she'rida kuzatishimiz mumkin:

*Qachongacha ezilasan, ey zahmatkash!
Bir burda non uchun ter to'kasan, ey mehnatkash!
Poymol etilgan huquqing talab qil!*

*Qachongacha xo'jayinlar va xonlar qurquvida
yashaysan, ey zahmatkash!*

*Zulukdek qoningni ichayotganlarning qonin to'k,
O'sha qonda ko'llaringni qizartir, ey zahmatkash!*

Shoira xalq ustidan jabr-zulm o'tkazayotgan hokim tabaqani, hatto shohni ham fosh etadi. Shoh tomonidan o'rnatilgan tuzum, istibdodga asoslangan hokimiyatga nisbatan o'z g'azabi va nafratini oshkora bayon etadi. Podshoh adliga ishonmaganligi, zulmdan iborat bo'lgan qonunlarni qoralaganligini yaqqol ko'rsatib beruvchi «Qari ayolning shikoyati» nomli qit'asi quyidagicha boshlanadi:

Shikor boshlangan kuni kampir Qubodga murojaat qildi:

*— Sening badkorligingdan azob-uqubatdan boshqa
narsa yo'q,*

*Shikorga ketayotganingda bizning kulbamizga bir
boq*

*Kambag'allar ahvoli haqidagi haqiqatni bilmoq
gunoh emas-ku!*

*Ovqat vaqtidagi kup-quruq dasturxonimizga boq,
Shunda ishonch hosil qilarsankim, mamlakatingda
yo'q farovonlik*

*O'g'ri yulib ketdi to'shagim, cho'pon keltirmadi
sigirimni,*

*Mamlakatingda hech bir osoyishtalik va omonlik
yo'q.*

Soliqlardan bukuldi belimiz,

*Bug'doy pishadi, faqat uning somoninggina bizga
nasib bo'ladi*

*Podsholik davringda ko'zimiz iflosliklardan boshqa
narsani ko'rmadi.*

Ochiqdan-oydin nuqsonlaringga boqmaysan

Yolg'on hukm chiqarib, haqiqat deding

Iflos ishlar qilding, bu ifloslik emas deding.

Saroying ahli o'tkazdi menga jabru-sitam

*Saroyingda yo'qdir pastlik va razillikdan o'zga
narsa*

*Zulmingdan xonavayron bo'ldik, boshpanamiz
yo'q.*

Sen kabi inson podshoh emas, talamchidir.

Xalq qora kunlari sening qora ishlarining oqibatidir.

*Ammo ishon, senga ham qo'lni cho'zar ul qora kun
qismati (Parvin E., 1941:18).*

Parvin E'tisomiy podshoh va uning zulm-sitamiga asoslangan hokimiyati haqida yozgan she'rlarida mamlakatda o'rnatilgan davlat tuzumining qabih

tomonlarini ochiqdan-ochiq fosh qiladi, xalqning hamma azob-uqubatlariga sabab va zulm, zo'rlikni o'zida mujassamlashtirgan shoh hokimiyati ekanligini aytadi.

Shoira o'z xalqini benihoya sevadi, uning yorqin kelajakka erishishiga ishonadi. Mazlum xalqini zolimlarga qarshi kurashga chaqiradi. Parvinning «Munozara» («Bahslashuv») nomli she'rida zolim bilan mazlum o'rtasidagi kelishtirib bo'lmaydigan ziddiyatning ikki qon — biri tojdorning qoni, ikkinchisi tikan teruvchining qoni o'rtasidagi bahslashuvda ifoda etilganini ko'ramiz:

*Bir aytdi: «So'zingning yo'q gumoni,
Men ishchi qoni, sen-chi, boyni qoni.
Menga yo'ldosh o'zimga o'xshaganlar —
Yetim yoshi, jafokash qonidirlar.
Vujudga kelding ishratli yurakdan,
Egilgan qomatu gamdan erurman.
Taomlar senga shoh oshxonasidan,
Menga ko'z yoshi ham o't donasidan,
Ichib maylar, sening ranging yuz alvon.
Haqorat, g'am-alam qildi meni qon
Haqiqat mulkida minglab xaridor,
Yurak qonidadirman, qiymatim bor.
O'lim ham suratimni mahv etolmas,
Qayu bir tomchi qon menga kelur bas.
Bu qonda ikki yuz daryo nihondir,
Zafarlar kemasi bunda ravondur.
Bo'lur qo'l bog'lilar qullikdan ozod.
Agar ozod bo'lish-chun yursa avlod.
Ko'karmas erdi zolimlik daraxti,
Kesib tashlansa tez, kelganda vaqti.*

Zulm-sitamni faqat kurash yo'li bilan yo'qotish mumkin ekanligi to'g'risidagi fikr Parvin ijodiyotida birdan vujudga kelmaydi. U o'zining ilk she'rlarida adolat o'rnatish uchun hokimiyat tepasida o'tirganlarni insofga kiritish mumkin degan fikrda edi. Ammo tobora shoira dunyoqarashida bunday fikrlar o'rnini xalq ozodligi uchun kurashish kerak degan fikrlar egallay boshlaydi.

TAHLIL

Parvin ijodiyotining ahamiyatli tomoni ham shundadir. Shoira she'rlar devonining birinchi nashri (1935 y.) munosabati bilan mashhur eron adabiyotshunosi Muhammad Qazviniy bunday deb yozgan edi:

«Fan va adabiyotimiz inqirozga uchrab turgan ana shu og'ir kunlarda markazda (ya'ni Tehronda) shoirlar malikasi adabiyot osmonida charaqlab turgan yulduzdek paydo bo'lishi meni benihoya taajjub va hayratga soldi... Parvinning she'rlari ham ma'no va ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatish kuchi bilan yuksak bahoga sazovordir.

Til va mazmun jihatdan Parvinning qasidalari qasida ustozlari, xususan Nosir Xusrav yaratgan qasidalari bilan tenglasha oladi».

She'riyatni mehnatkash xalq ommasining yorqin kelajagi uchun ko'maklashuvchi qurol deb hisoblagan Parvin ijod etgan she'rlari ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan g'oyalarni tarannum qiladi. Uning she'rlarida shoiraning boy ichki dunyosi, oliyanob insonga xos bo'lgan xislatlar mujassamlashgan. Shoira yaratgan har bir poetik obraz real hayotdan olingan, ana shuning uchun ham Parvinning she'rlari katta ta'sir kuchiga ega.

Shoira ijodiyotidagi optimizm uning moddiy boyliklar yaratuvchi mehnatkash xalqqa bo'lgan chuqur muhabbati bilan sug'orilgan. Shoira darhaqiqat o'z xalqini benihoya sevadi, uning (xalqining) orzu-umidlarini jo'shqin va ta'sirchan misralarda ifoda eta oladi. U xalq kuchiga ishonadi. Shuning uchun ham xalq ommasi orasidan olib yaratgan obrazlari ekspluatatorlarga qarshi kurashuvchi ijtimoiy kuch sifatida gavdalanadi.

XULOSA

Parvin E'tisomiyning ijodining asosiy qismi realizm ekanligi ham ana shu sababdan bo'lsa ajabmas. Parvin o'zining qisqa, ammo sermazmun hayoti va ijodi bilan o'z xalqi manfaatlariga xizmat qildi. Parvin dunyoqarashida va uning ijodida asta-sekin paydo bo'la boshlagan insonparvarlik ruhidagi ijodiyoti uning to'satdan vafot etishi sababli yuqori cho'qqiga ko'tarila olmadi. Parvinning Gorkiy aytganidek «Mehnatkash xalqning ozodlikka erishishini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan inqilobiy gumanizm»gacha yetib kelishi, uning ijodiyoti Eron adabiyoti namoyandalari safidan haqli ravishda o'rin olganligiga shubha tug'dirmaydi.

АДАБИЁТЛАР:

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. I жилд. —Т.: Фан, 1978. —18 б.
2. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. II жилд. — Т.: Фан, 1979.— 449 б.
3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. —Тошкент: Фан, 1992. — 247 б.
4. Бертельс Е.Э. (1988) История литературы и культуры Ирана. —М.: Наука, 1988. —559 б.
5. Имомназаров.М. (2013) X-XV асрлар. Форс мумтоз шеърияти (Даврлаштириш муаммолари. Адабиётнинг мустақил маънавий моҳиятининг шаклланиши). — Т., 2013. — Б. 310.
6. Иззат Султон. (1989) Адабиёт назарияси . — Тошкент: Ўқитувчи, 1989. -378 б.
7. Муҳаммадризо Рўзбеҳ. Ҳозирги замон Эрон адабиёти. —Т., 2012.

8. Мухаммадризо Рўзбек. Ҳозирги замон Эрон шеърятини: “янги шеър”нинг тарихий таҳлили. Сино // 2009 йил. –Б. 34-35-36.
9. Маллаев Н. (1976) Ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлири учун дарслик. 1-китоб. –Тошкент: Ўқитувчи, 1976. – 662 б.
10. Nizamova F. (2019) The history of studying Khusrav Dekhlavi's work // The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 2. – С. 95-99.
11. Османов Н. (1974) Стиль персидско-таджикской поэзии IX–X вв. –М., 1974.
12. Османов Н. (1970). Тип, метод и стил персидской поэзии X в. // Ж. Народы Азии и Африки. –1970. – № 1. – 156 б.
13. Очилов Э. (2016) Рубоий таржимасида шакл ва мазмун бирлиги: фил. фан. номзоди дисс. Автореф. – Тошкент, 1994. – 23 б.
14. Parvin E'tisomi. (2017) She'rlar. Jahon adabiyoti va madaniyati j-li. Mirza Kenjabek tarjimalari. – T., 2017.
15. Парвин Ётисомий ҳақида мақолалар ва шеърлар (1944). –Техрон, 1944. –Б. 19.
16. Парвин Ётисомий (1941). Шеърлар девони. – Техрон, 1941. –Б. 167.
17. Парвин Ётисомий (1954). Шеърлар девони. 4-нашри. – Техрон, 1954. – Б. 268.
18. Parvin E'tisomiy (1954). She'rlar devoni. 2-nashri. – Tehron, 1941. – B. 27.
19. Парвин ҳақидаги мақолалар ва шеърӣ хотиралар. (1944) – Техрон, 1944. –Б. 6–7.
20. Пригарина Н.И. (1983) Образное содержание байта в поэзии на персидском языке / Восточная поэтика Специфика художественного образа. –М., 1983. –Б. 89–108.
21. Rubinchik Yu.A. (1963) tahriri ostida Persidsko-russkiy slovar. 2 tomlik –М., 1963.
22. Современная иранская проза. Антология иранского рассказа. Том I, II. СПб., 2010.
23. Сулаймонова Ф. (1997) Шарқ ва Ғарб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 465 б.
24. Султон Иззат. (1986) Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
25. Саид Нафисий (1323 х.). Парвин Ётисомий. Пайёме нон ж-ли. –№2. 1323 х.й. –Б. 99.
26. Turdiyeva O. (2015) Zamonaviy Eron hikoyanavisligi: monigrafiya. –Toshkent, 2015.
27. Turdiyeva O. (2020) Eron folklori: o'quv qo'llanma. –Toshkent, 2020.
28. Шомухамедов Ш. (1963) Форс-тожик адабиёти классиклари. –Т.: Ўздавбададабнашр, 1963. –99 б.
29. Шомухамедов Ш. (1968) Форс-тожик адабиёти классиклари ижодида гуманизм. –Т.: Фан, 1968. – 432 б.
30. Шомухамедов Ш. (1981) Хазиналар жилоси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б.
31. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. –Тошкент: ТошДШИ, 2000. –140 б.
32. Шомухамедов Ш. (2003) Форсий шеърятнинг асосий шакллари. –Тошкент: ТошДШИ, 2003. –102 б.
33. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. –Т.: ТошДШИ, 2000. –140 б.
34. Куронов Д. (2007) Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент : Фан, 2007. – 226 б.
35. Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. (1970) Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент : Ўқитувчи, 1970. –299 б.
36. Quronov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug'ati. – T: Akademnashr, 2010. 173-b.
37. Эрон шоирлари. –Тошкент, 1958. –Б. 60-61.
38. Ян Рипка. (1970) История персидской и таджикской литературы. –М., 1970.
39. Шамсулмулк Жаҳоҳир Калом. Ислом ва Эроннинг машҳур аёллари. 1 том. –Б. 7.
40. Шомухамедов Ш. (2000) Жаҳонни мафтун этган адабиёт. – Т.: ТДШИ, 2000. – 140 б.

XORIJIIY ADABIYOT:

- دانشنامه ادب فارسی. جلد اول. تهران ۱۳۹۱. ص ۱۴۰۱
- فرهنگنامه ادبی فارسی. تهران ۱۳۹۱. ص ۵۳۵۱
- سیروس شمیس. سبکشناسی شعر. تهران ۱۳۹۱. ص ۹۳۲
- رشید یاسمی. ادبیات معاصر. تهران
- سعید نفیسی. تاریخ مختصر ادبیات ایران. سالنامه

REFERENCES:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. –T.: Fan, 1978. –18 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. II jild. – T.: Fan, 1979. – 449 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirik. – Toshkent: Fan, 1992. – 247 b.
4. Бертельс Е.Э. (1988) История литературы и культуры Ирана. –М.: Наука, 1988. –559 б.
5. Imomnazarov M. (2013) X-XV asrlar. Fors mumtoz she'riyati (Davrlashtirish muammolari. Adabiyotning mustaqil ma'naviy mohiyatining shakllanishi). – T., 2013. – B. 310.
6. Izzat Sulton. (1989) Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1989. –378 b.
7. Muhammadrizo Ruzbeh. Hozirgi zamon Eron adabiyoti. –T., 2012.
8. Muhammadrizo Ro'zbeh. Hozirgi zamon Eron she'riyati: “yangi she'r”ning tarixiy tahlili. Sino // 2009 yil. –B. 34-35-36.
9. Mallayev N. (1976) O'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. –Toshkent: O'qituvchi, 1976. – 662 b.
10. Nizamova F. (2019) The history of studying Khusrav Dekhlavi's work // The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 2. – С. 95-99.
11. Османов Н. (1974) Стиль персидско-таджикской поэзии IX–X вв. –М., 1974.

12. Османов Н. (1970). Тип, метод и стил персидской поэзии X в. // Ж. Народы Азии и Африки. –1970. – № 1. – 156 б.
 13. Ochilov E. (2016) Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: fil. fan. nomzodi diss. Avtoref. – Toshkent, 1994. – 23 b.
 14. Parvin E'tisomi. (2017) She'rlar. Jahon adabiyoti va madaniyati j-li. Mirza Kenjabek tarjimalari. – T., 2017.
 15. Parvin E'tisomiy haqida maqolalar va she'rlar (1944). -Tehron, 1944. -B. 19.
 16. Parvin E'tisomiy (1941). She'rlar devoni. –Tehron, 1941. –B. 167.
 17. Parvin E'tisomiy (1954). She'rlar devoni. 4-nashri. – Tehron, 1954. – B. 268.
 18. Parvin E'tisomiy (1954). She'rlar devoni. 2-nashri. – Tehron, 1941. – B. 27.
 19. Parvin haqidagi maqolalar va she'riy xotiralar. (1944) – Tehron, 1944. –B. 6–7.
 20. Пригарина Н.И. (1983) Образное содержание байта в поэзии на персидском языке / Восточная поэтика Специфика художественного образа. –М., 1983. –Б. 89–108.
 21. Rubinchik Yu.A. (1963) tahriri ostida Persidsko-russkiy slovar. 2 tomlik -M., 1963.
 22. Современная иранская проза. Антология иранского рассказа. Том I, II. СПб., 2010.
 23. Sulaymonova F. (1997) Sharq va G'arb. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 465 b.
 24. Sulton Izzat. (1986) Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1986. – 408 b.
 25. Said Nafisiy (1323 h.). Parvin E'tisomiy. Payyome non j-li. –№2. 1323 h.y. -B. 99.
 26. Turdiyeva O. (2015) Zamonaviy Eron hikoyanavisligi: monografiya. –Toshkent, 2015.
 27. Turdiyeva O. (2020) Eron folklori: o'quv qo'llanma. –Toshkent, 2020.
 28. Shomuhamedov Sh. (1963) Fors-tojik adabiyoti klassiklari. –T.: O'zdamadabnashr, 1963. –99 b.
 29. Shomuhamedov Sh. (1968) Fors-tojik adabiyoti klassiklari ijodida gumanizm. –T.: Fan, 1968. – 432 b.
 30. Shomuhamedov Sh. (1981) Xazinalar jilosi. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 400 b.
 31. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. –Toshkent: ToshDSHI, 2000. –140 b.
 32. Shomuhamedov Sh. (2003) Forsiy she'riyatning asosiy shakllari. –Toshkent: ToshDSHI, 2003. -102 b.
 33. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. –T.: ToshDSHI, 2000. –140 b.
 34. Quronov D. (2007) Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent : Fan, 2007. – 226 b.
 35. Homidiy X., Abdullayeva Sh., Ibroximova S. (1970) Adabiyotshunoslik terminlari lugati. – Toshkent : O'qituvchi, 1970. -299 b.
 36. Quronov D. (2010) Adabiyotshunoslik lug'ati. – T: Akademnashr. 2010. 173-b.
 37. Eron shoirlari. -Toshkent, 1958. -B. 60-61.
 38. Ян Рипка. (1970) История персидской и таджикской литературы. –М., 1970.
 39. Shamsulmuluk Javohir Kalom. Islom va Eronning mashhur ayollari. I tom. –B. 7.
 40. Shomuhamedov Sh. (2000) Jahonni maftun etgan adabiyot. – T.: TDSHI, 2000. – 140 b.
- Doneshnome-ye adab-e forsi. Jeld-e avval. Tehron, 1380. C. 1041.
 - Farhangnome-ye adab-e forsi. Tehron, 1381. C.1535.
 - Sirus Shamiso. Sabokshenosi-ye she'r. Tehron, 1382. C. 238-239.
 - Rashid Yosemi. Adabiyot-e maoser. Tehron.
 - Said Nafisi. Norix-e moxtasari-ye adabiyote Iron. Solnome.